

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI
ADMINISTRATSIYASI HUZURIDAGI
**TA'LIM SIFATINI TA'MINLASH
MILLIY AGENTLIGI**



**TA'LIM DASTURINI
MAXSUS DAVLAT AKKREDITATSIYASIDAN O'TKAZISH BO'YICHA**

YAKUNIY HISOBOT



TURKIY DAVLATLAR XALQARO UNIVERSITETI
nodavlat oliy ta'lim tashkiloti

60610300 – Kompyuter injiniringi
bakalavriat ta'lim dasturi



**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI
ADMINISTRATSIYASI HUZURIDAGI
TA'LIM SIFATINI TA'MINLASH MILLIY AGENTLIGI**

60610300 – Kompyuter injiniringi

**TA'LIM DASTURINI MAXSUS DAVLAT AKKREDITATSIYASIDAN
O'TKAZISH BO'YICHA YAKUNIY HISOBOT**

TURKIY DAVLATLAR XALQARO UNIVERSITETI

(Ekspert komissiyasi xulosasi asosida)

1. Umumiy ma'lumotlar

Ariza raqami	MAO260022
Xulosa raqami	695
Xulosa sanasi	26.05.2026
Ta'lim tashkilotining to'liq nomi	"TURKIY DAVLATLAR XALQARO UNIVERSITETI" MAS'ULIYATI CHEKLANGAN JAMIYAT QO'SHMA KORXONA
Tashkilot manzili, litsenziya / identifikatsiya ma'lumotlari	Toshkent shahri, Uchtepa tumani, Kichik xalqa yo'li ko'chasi, 3A-uy. Litsenziya № 2854171, 20.06.2025-yil
Baholangan ta'lim dasturi nomi	Kompyuter injiniringi
Yo'nalish / mutaxassislik kodi	60610300
Akkreditatsiya usuli	joyiga chiqib
Ekspertlar guruhi raisi (F.I.Sh., lavozimi)	ALLANOV ORIF MENGLIMURATOVICH

2. Huquqiy asoslar

Xulosa tayyorlanishiga asos bo'lgan normativ-huquqiy hujjat:

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "O'rta maxsus, kasbiy, oliy va oliy ta'limdan keyingi ta'lim, shuningdek, kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tashkilotlarini kompleks hamda maxsus davlat akkreditatsiyasidan o'tkazish tizimini joriy etish to'g'risida" 2025-yil 6-avgustdagi 498-son qarori 1-ilovasi bilan tasdiqlangan "O'rta maxsus, kasbiy, oliy va oliy ta'limdan keyingi ta'lim, shuningdek, kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tashkilotlarini kompleks hamda maxsus davlat akkreditatsiyasidan o'tkazish tartibi to'g'risida"gi Nizom.

Maxsus davlat akkreditatsiyasi:

O'rta maxsus, kasbiy, oliy ta'limni va oliy ta'limdan keyingi ta'limni, shuningdek, kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirishni amalga oshiruvchi davlat va nodavlat ta'lim tashkilotlarida ta'lim dasturlari bo'yicha o'quv jarayoni boshlanishidan oldin amalga oshiriladigan jarayon.

3. Ta'lim dasturining umumiy tavsifi

1. Ta'lim tashkilotining litsenziya/guvohnomasi: <i>License/Certificate of Educational Institution:</i>	№ 2854171 / 20.06.2025
2. Ta'lim tashkilotining turi: <i>Type of Educational Institution:</i>	Nodavlat oliy ta'lim tashkiloti
3. Ta'lim dasturi kodi va nomi: <i>Code and Name of Study Programme:</i>	60610300 - Kompyuter injiniringi
4. Ta'lim dasturining ingliz tilida nomlanishi: <i>Name of Study Programme in English:</i>	60610300 - Computer Engineering
5. Ta'lim dasturining rus tilida nomlanishi: <i>Name of Study Programme in Russian:</i>	60610300 - Компьютерная инженерия
6. Hamkorlikda amalga oshirilishi: <i>Offered in Cooperation with:</i>	Orta Doğu Teknik Üniversitesi
7. Ta'lim tili: <i>Medium of Instruction:</i>	o'zbek, rus, ingliz, turk
8. Ta'lim shakli: <i>Mode of Study:</i>	kunduzgi
9. Ta'lim dasturi hajmi: <i>Study Programme Credits:</i>	240 kredit
10. Ta'lim dasturi davomiyligi: <i>Duration of Study Programme:</i>	4 yil
11. Milliy malaka ramkasidagi darajasi: <i>Level in National Qualifications Framework:</i>	6-daraja
12. Kvalifikatsiya(lar) nomi: <i>Qualification Title:</i>	Kompyuter tizimlari muhandisi
13. Qo'shimcha beriladigan kvalifikatsiyalar: <i>Additional Qualifications Awarded:</i>	Kompyuter tizimlari xavfsizligi muhandisi
14. Ta'lim dasturi yakunida beriladigan hujjat turi: <i>Type of Document Issued Upon Completion:</i>	Davlat namunasidagi diplom
15. Ta'lim oluvchilarning me'yoriy miqdori (to'liq davr): <i>Maximum Number of Students (full period):</i>	500 nafar
16. Ta'lim dasturini o'qitish manzili: <i>Address Where the Study Programme is Delivered:</i>	Toshkent shahri, Uchtepa tumani, Kichik xalqa yo'li ko'chasi, 3A-uy

4. BAHOLASH YO'NALISHLARI VA MEZONLAR BO'YICHA NATIJALAR

Har bir yo'nalish bo'yicha baho (muvofig / muvofig emas) va har bir mezon bo'yicha baho (muvofig / qisman muvofig / muvofig emas) deb baholanadi.

No	Baholash yo'nalish (bob) va mezonlari	Muvofiqligi
1.	Tashkiliy-boshqaruv va sifatni ta'minlash	Muvofiq
1.1.	<i>ta'lim dasturini amalga oshirish bo'yicha tarkibiy tuzilma va uning samarali ishlash mexanizmlarining mavjudligi;*</i>	Muvofiq
1.2.	<i>ta'lim dasturini rivojlantirish va moliyaviy barqarorligini ta'minlash bo'yicha 5 yillik istiqbolli rejaning mavjudligi;</i>	Muvofiq
1.3.	<i>ta'lim dasturi doirasida sifatni ichki ta'minlash mexanizmining mavjudligi hamda bu jarayonlarda manfaatdor tomonlarning ishtiroki ta'minlangani;</i>	Muvofiq
1.4.	<i>mehnat bozori va ta'lim ehtiyojlari hamda ilmiy-tadqiqotning so'nggi tendensiyalarini aniqlash bo'yicha monitoring tizimining mavjudligi;</i>	Muvofiq
2.	Ta'lim dasturlari	Muvofiq
2.1.	<i>manfaatdor tomonlar ishtirokida ta'lim dasturining belgilangan tartibda ishlab chiqilgani. Bunda ta'lim dasturining maqsadi, natijalarining belgilangani, mehnat bozori, davlat ta'lim standarti va milliy malakalar ramkasi talablariga muvofiqligi;*</i>	Muvofiq
2.2.	<i>ta'lim dasturining milliy ta'lim tizimidagi ustuvor yo'nalishlar va xalqaro andozalar asosida ishlab chiqilgani;</i>	Muvofiq
2.3.	<i>ta'lim dasturining davomiyligi, fanlarning uzviyligi va uzluksizligi ta'minlangani;</i>	Muvofiq
3.	O'quv jarayonini tashkil etish va o'quv natijalarini baholash	Muvofiq
3.1.	<i>ishchi o'quv reja va dasturlarining belgilangan talablarga muvofiq ishlab chiqilgani;*</i>	Muvofiq
3.2.	<i>o'quv jarayonining ta'lim dasturida belgilangan o'quv natijalariga erishishga yo'naltirilgani;*</i>	Muvofiq
3.3.	<i>o'quv jarayonining doimiy baholab borilishi va takomillashtirishga qaratilgani;</i>	Muvofiq
3.4.	<i>amaldagi ta'lim dasturlari bo'yicha o'quv jarayonida ilg'or pedagogik texnologiyalarning qo'llanilgani va tegishli samaradorlikka erishilgani;</i>	—
3.5.	<i>ta'lim dasturi doirasida talabalar bilimining shaffof va xolis baholanishi, baholash jarayonlarining o'quv natijalariga muvofiqligi;</i>	Muvofiq
3.6.	<i>talabalarning baholash natijalari bo'yicha fikr-mulohazalarini olish imkoniyati mavjudligi;</i>	Muvofiq

№	Baholash yo'nalish (bob) va mezonlari	Muvofiqligi
3.7.	<i>ta'lim dasturida akademik halollik qoidalarining belgilangani va unga zid holatlarning oldini olish bo'yicha samarali tizimning mavjudligi;*</i>	Muvofiq
4.	Talabalar faoliyati	Muvofiq
4.1.	<i>ta'lim dasturi bo'yicha qabul talablari aniq belgilangani, o'qishga qabul qilish shaffof tarzda yo'lga qo'yilgani;</i>	Muvofiq
4.2.	<i>qabul parametrlarining ta'lim tashkilotining resurslari va imkoniyatlariga mos kelishi;*</i>	Muvofiq
4.3.	<i>talabalarining o'qishini ko'chirish, kursdan-kursga o'tkazish (qoldirish), o'qishdan chetlashtirish va o'qishini qayta tiklash tartibining belgilangani;*</i>	Muvofiq
4.4.	<i>talabalarni qo'llab-quvvatlash va ularga maslahat berish mexanizmlarining mavjudligi;</i>	Muvofiq
5.	Inson resurslari	Muvofiq
5.1.	<i>ta'lim dasturi uchun belgilangan me'yorlarga muvofiq pedagog kadrlar, shuningdek, boshqaruv, texnik, xizmat ko'rsatuvchi va o'quv-yordamchi xodimlar mavjudligi hamda ularning sifat tarkibi, malakasi va mutaxassisligi belgilangan talablarga mosligi;*</i>	Muvofiq
5.3.	<i>yangi ta'lim dasturlari bo'yicha o'quv rejadagi fanlarga mos (tegishli) kasbiy, pedagogik va ilmiy kompetensiyalarga ega pedagog kadrlar bilan ta'minlash bo'yicha aniq rejaning mavjudligi;*</i>	Muvofiq
5.4.	<i>kadrlarning kasbiy rivojlanishi va malaka oshirishiga sharoit yaratilgani, moddiy va ma'naviy rag'batlantirish tizimining mavjudligi;</i>	Muvofiq
6.	Moddiy-texnik ta'minot	Muvofiq
6.1.	<i>ta'lim dasturini amalga oshirish uchun amaliy, laboratoriya mashg'ulotlari va kurs ishi (loyiha)ni bajarish uchun zarur asbob-uskunalar, jihozlar, inventarlar, texnikalar, xomashyo materiallari va boshqalarning mavjudligi hamda metodik qo'llanma (ko'rsatma)lar bilan ta'minlangani;*</i>	Muvofiq
6.2.	<i>fanlar kesimida o'quv va o'quv-metodik adabiyotlar, elektron ta'lim resurslari bilan belgilangan talablarga muvofiq ta'minlangani;*</i>	Muvofiq
6.3.	<i>o'quv va laboratoriya xonalari hamda ustaxona (poligon)larning talabalar sonidan kelib chiqib, ta'lim dasturlariga mos jihozlar va axborot-kommunikatsiya vositalari bilan ta'minlangani hamda xavfsizlik qoidalariga rioya qilingani;*</i>	Muvofiq
6.4.	<i>inklyuziv ta'lim olish uchun binolar va jihozlarning moslashtirilgani, maxsus o'quv materiallarining mavjudligi, axborot-kommunikatsiya vositalaridan foydalanish imkoniyati yaratilgani;</i>	Qisman muvofiq

№	Baholash yo'nalish (bob) va mezonlari	Muvofiqligi
6.5.	<i>axborot-resurs markazining (kutubxonaning) ta'lim dasturlariga mos o'quv adabiyotlari, kompyuterlar bilan ta'minlangani, o'quv zali va elektron kutubxonaning mavjudligi;*</i>	Muvofiq
6.6.	<i>raqamli ta'lim muhiti yaratilgani (LMS, wi-fi zonalari, onlayn kurslar, vebinarlar va masofaviy ta'lim imkoniyatlari);</i>	Qisman muvofiq
6.7.	<i>ta'lim dasturi xususiyatidan kelib chiqib, maxsus xona yoki bino va inshootlarining (sport zali, stadion, musiqa xonasi va boshqalarning) mavjudligi.</i>	Muvofiq

5. BAHOLASH YO'NALISHLARI (BOB) BO'YICHA XULOSALAR

I BOB. Tashkiliy-boshqaruv va sifatni ta'minlash yo'nalishi (Muvofiq)

Yo'nalish bo'yicha universitet tomonidan zarur tashkiliy-huquqiy asoslar shakllantirilgani kuzatildi: Kompyuter muhandisligi kafedrasini tashkil etish bo'yicha universitet buyrug'i hamda moddiy-texnik baza mavjudligini tasdiqlovchi ma'lumotnoma taqdim etilgan, universitet ustavi esa tarkibiy tuzilmalarning vakolatlari, vazifalari va funksiyalarini belgilovchi asosiy me'yoriy hujjat sifatida xizmat qiladi. Ta'lim dasturini rivojlantirish va moliyaviy barqarorlikni ta'minlash bo'yicha 5 yillik istiqbolli reja ishlab chiqilgan bo'lib, u oliy ta'lim tashkilotining strategik rejasi bilan mos hamda ta'lim sifati, kadrlar salohiyati, infratuzilma, raqamlashtirish, xalqaro hamkorlik va moliyaviy barqarorlik yo'nalishlarini qamrab oladi. Shuningdek, ta'lim dasturi doirasida sifatni ichki ta'minlash, monitoring va manfaatdor tomonlar fikrini inobatga olish mexanizmlari hamda mehnat bozori va ta'lim ehtiyojlarini kuzatish tartibi mavjudligi qayd etildi. Kelgusida ta'lim dasturi kesimida mas'ul kafedra va bo'limlarning aniq funksional vazifalari, ijro mexanizmlari, kafedra faoliyati hamda moddiy-texnik va moliyaviy ta'minot bo'yicha aniq reja va monitoring ko'rsatkichlarini batafsil hujjatlashtirib borish maqsadga muvofiq.

II BOB. Ta'lim dasturlari yo'nalishi (Muvofiq)

Ta'lim dasturi manfaatdor tomonlar ishtirokida belgilangan tartibda ishlab chiqilgani, uning maqsadlari, kutilayotgan o'quv natijalari va kompetensiyalari aniq belgilanib, milliy malakalar ramkasi, davlat ta'lim standarti hamda mehnat bozori ehtiyojlari bilan uyg'unlashtirilgani ijobiy baholanadi; xalqaro moslikni tasdiqlovchi rasmiy xulosa ham taqdim etilgan. Biroq tahlil natijasida ta'lim dasturining amaldagi o'quv dasturi tayanch OTM malaka talabi va o'quv reja bilan to'liq mos kelmasligi,

fan dasturlari (sillabuslar)ning asosan hamkor universitet materiallari asosida va ingliz tilida taqdim etilgani hamda o'zbek tilidagi tasdiqlangan variantlari mavjud emasligi aniqlandi. Bu esa malaka talabi, o'quv reja va fan dasturlari o'rtasidagi uzviylik hamda kreditlar va soatlar taqsimotida metodik nomutanosiblik yuzaga kelish ehtimolini oshiradi; laboratoriya mashg'ulotlari soatlarining cheklanganligi amaliy ko'nikmalarni yetarli shakllantirish borasida muayyan xavotir tug'diradi. Shu sababli malaka talabi, o'quv reja va fan dasturlarini hamkor oliy ta'lim muassasasi asosida o'zbek tiliga tarjima qilish, milliy talablar va universitet akademik profiliga moslashtirib universitet nomidan tasdiqlash, mehnat bozori tahlilini chuqurlashtirish, laboratoriya-amaliy mashg'ulotlar ulushini qayta ko'rib chiqish hamda kompetensiyalar xaritasini ishlab chiqish maqsadga muvofiq.

III BOB. O'quv jarayonini tashkil etish va o'quv natijalarini baholash yo'nalishi (Muvofiq)

O'quv jarayonini tashkil etish, uni ta'lim dasturining maqsadlari va kutilayotgan natijalariga muvofiqlashtirish, baholash tizimi, amaliyot bazalari hamda akademik halollik mexanizmlarining mavjudligi kuzatildi; talabalarning fikr-mulohaza va shikoyatlarini yig'ish va ko'rib chiqish tartibi ham yo'lga qo'yilgan. Ekspert xulosalarida Kompyuter muhandisligi yo'nalishida asosiy texnik bilimlar – fundamental hisoblash, algoritmlash, dasturlash, kompyuter arxitekturasini va muhandislik asoslarining boshlang'ich semestrlarda joylashtirilishi hamda fanlar ketma-ketligini kompetensiyalar rivojlanish dinamikasiga mos ravishda qayta ko'rib chiqilishi lozimligi ta'kidlangan. Shuningdek, dasturga sun'iy intellekt asoslari, mashinaviy o'qitish, kiberxavfsizlik, ma'lumotlar himoyasi va xavfsiz dasturlash kabi zamonaviy, amaliyotga yo'naltirilgan komponentlarni tizimli kiritish talabalar raqobatbardoshligi va dastur mazmunining zamonaviy mehnat bozori talablariga mosligini kuchaytirishi qayd etilgan. Ushbu takomillashtirishlar bilan bir qatorda, o'quv reja va fan dasturlarini o'zbek tiliga tarjima qilish hamda amaldagi qonunchilik va milliy talablarga moslashtirish tavsiya etiladi.

IV BOB. Talabalar faoliyati yo'nalishi (Muvofiq)

Ta'lim dasturi bo'yicha qabul mezonlari va talablari aniq belgilangani, ularning ochiq yetkazilishi, abituriyentlarga o'z vaqtida ma'lumot berilishi, shikoyat va apellyatsiya hamda talabalar mobilligi, kreditlarni tan olish va avvalgi ta'lim natijalarini e'tirof etish mexanizmlarining mavjudligi ijobiy baholanadi; qabul parametrlari universitet resurslari, ARM sig'imi, professor-o'qituvchilar tarkibi va moliyaviy imkoniyatlarga

mos ravishda shakllantirilgan. Ekspert xulosalarida tayyorlov kursida tahsil olgan talabalarning qabul qilinishi alohida e'tiborga loyiq holat sifatida qayd etilib, tayyorlov bosqichidagi ishtirok va o'quv faoliyati natijalarini asoslovchi hujjatlar, baholash mezonlari hamda qabul qarorlarini amaldagi qonunchilikka muvofiq rasmiylashtirish zarurligi ko'rsatilgan. Bundan tashqari, talabalar uchun kontrakt miqdorini belgilash va e'lon qilish, o'zbek tilida dars o'tadigan professor-o'qituvchilar va boshqaruv xodimlarini jalb qilish hamda 5 yillik rejada ko'rsatilgan kafedra va fakultetlarni tashkil etish tavsiya etiladi.

V BOB. Inson resurslari yo'nalishi (Muvofiq)

Ta'lim dasturini malakali professor-o'qituvchilar bilan ta'minlash universitetning tashkiliy tuzilmasi, yo'nalishlari va o'quv rejasidagi fanlar asosida shakllantirilgani, asosiy shtatdagi professor-o'qituvchilar ulushi va mutaxassislik fanlarining hamkor universitet professorlari ishtirokida olib borilishi ko'zda tutilgani kuzatildi; yangi dasturlar uchun kadrlar ehtiyoji tahlil qilingan hamda xorijiy mutaxassislar va ilmiy darajali kadrlarni jalb qilish bo'yicha 2026–2030-yillarga mo'ljallangan istiqbolli reja universitet majlisida ko'rib chiqilib, bayonnoma bilan tasdiqlangan. Ilmiy maqolalar chop etish, innovatsion faoliyat va loyihalarda ishtirokni rag'batlantirish hamda kasbiy rivojlanish natijalarini hisobga olish tizimlari joriy etilgani ijobiy holat sifatida qayd etiladi. Shu bilan birga, universitetdagi kadrlar sonini shtat jadvalida belgilangani bo'yicha to'ldirish, 5 yillik rejada ko'zda tutilgan fakultet va kafedralar faoliyatini o'quv yili boshlanguniga qadar yo'lga qo'yish hamda pedagog kadrlar uchun qayta tayyorlash va malaka oshirish dasturlarini aniq ijro muddatlari, mas'ul bo'linmalar va natijadorlik ko'rsatkichlari bilan hujjatlashtirish zarurligi aniqlandi.

VI BOB. Moddiy-texnik ta'minot yo'nalishi (Muvofiq)

Amaliy va laboratoriya mashg'ulotlarini tashkil etish uchun zarur asbob-uskunalar, jihozlar va metodik qo'llanmalar, axborot-resurs markazi, o'quv va laboratoriya xonalari, IT infratuzilma, xavfsizlik qoidalariga rioya hamda sport infratuzilmasi mavjudligi kuzatildi; masofaviy ta'lim imkoniyatlari va axborot xavfsizligi himoyasi ham yaratilgan. Shu bilan birga, ekspert xulosalarida elektron kutubxona fondini Kompyuter injiniringi yo'nalishiga oid zamonaviy mutaxassislik adabiyotlari, laboratoriya ishlari uchun metodik ko'rsatmalar va multimedia materiallari bilan boyitish zarurligi qayd etilgan. Inklyuziv ta'lim uchun maxsus o'quv materiallari (Brayl alifbosidagi kitoblar, ko'rgazmali materiallar), maxsus jihozlar va yordamchi texnik vositalar mavjud emasligi hamda binolarni moslashtirishda kamchiliklar

borligi aniqlanib, ehtiyoj tahlili asosida bosqichma-bosqich xarid va joriy etish rejasini ishlab chiqish tavsiya etiladi. Bundan tashqari, HEMIS/LMS tizimiga onlayn kurslar va videodarslarni integratsiya qilish hamda talabalar faoliyatini elektron baholash va "feedback" berish tizimini joriy etish maqsadga muvofiq.

6. BAHOLASH YO'NALISHLARI (BOB) BO'YICHA ANIQLANGAN KAMCHILIKLAR VA NOMUVOFIQLIKLAR

Jiddiy kamchiliklar (akkreditatsiyaga to'sqinlik qiluvchi):

Akkreditatsiyaga to'sqinlik qiluvchi jiddiy kamchiliklar aniqlanmadi. Ta'lim dasturi barcha baholash yo'nalishlari (boblar) bo'yicha "muvofiq" deb baholangan.

Bartaraf etilishi lozim bo'lgan kichik kamchiliklar:

- ✓ Fan dasturlari (sillabuslar) asosan ingliz tilida va nazarda tutilmagan fanlar kesimida taqdim etilgan; ular tayanch OTM malaka talabi va o'quv reja bilan to'liq mos emas, o'zbek tilidagi hamda universitet tomonidan tasdiqlangan variantlari mavjud emas.
- ✓ Inklyuziv ta'lim uchun maxsus o'quv materiallari (Brayl alifbosidagi kitoblar, ko'rgazmali materiallar), maxsus jihozlar va yordamchi texnik vositalar mavjud emas.
- ✓ Raqamli ta'lim muhitida onlayn kurslar va videodarslarning LMS tizimiga integratsiyasi hamda talabalar faoliyatini elektron baholash va "feedback" berish tizimi yetarli darajada joriy etilmagan.
- ✓ Pedagog kadrlar uchun qayta tayyorlash va malaka oshirish dasturlarining amaliy mexanizmlari hamda tasdiqlangan hujjatlari yetarli emas; mutaxassislik fanlari bo'yicha o'quv adabiyotlari va elektron kutubxona fondi to'ldirilishi lozim.

7. TA'LIM DASTURINI SIFATLI TASHKIL ETISH BO'YICHA TAVSIYALAR

- ✓ Malaka talabi, o'quv reja va fan dasturlarini tayanch OTM hamda hamkor universitet asosida o'zbek tiliga tarjima qilish, milliy normativ-huquqiy talablar va universitet akademik profiliga moslashtirish hamda universitet nomidan tasdiqlash; o'quv yili boshlanguniga qadar zarur o'quv adabiyotlari va kitoblar bilan ta'minlash.
- ✓ O'quv dasturlariga sun'iy intellekt asoslari, mashinaviy o'qitish, kiberxavfsizlik, ma'lumotlar himoyasi va xavfsiz dasturlash kabi zamonaviy, amaliyotga

yo'naltirilgan komponentlarni tizimli kiritish hamda fanlar ketma-ketligini kompetensiyalar rivojlanishiga mos qayta ko'rib chiqish.

- ✓ Raqamli ta'lim infratuzilmasini kuchaytirish – videodarslar, onlayn kurslar, interaktiv materiallar va elektron topshiriqlarni LMS tizimiga bosqichma-bosqich integratsiya qilish, elektron baholash va “feedback” tizimini joriy etish.
- ✓ Inson resurslarini shtat jadvaliga muvofiq to'ldirish, 5 yillik rejada ko'zda tutilgan kafedra va fakultetlarni o'quv yili boshlanguniga qadar yo'lga qo'yish; inklyuziv ta'lim resurslari va mutaxassislik adabiyotlari bilan ta'minlashni rejalashtirish.

8. TA'LIM DASTURI BO'YICHA YAKUNIY XULOSA

Turkiy davlatlar xalqaro universiteti O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 25-yanvardagi PQ-24-son qaroriga asosan tashkil etilgan nodavlat oliy ta'lim muassasasi bo'lib, uning 60610300 – Kompyuter injiniringi ta'lim dasturi maxsus davlat akkreditatsiyasidan o'tkazildi. O'tkazilgan kompleks tahlil natijalariga ko'ra, ta'lim jarayonini tashkil etish, boshqarish va rivojlantirish uchun zarur tashkiliy-huquqiy asoslar shakllantirilgan; ta'lim dasturining maqsad va vazifalari, qabul jarayonlari, professor-o'qituvchilar tarkibi hamda infratuzilmaviy sharoitlar bo'yicha tizimli yondashuv mavjudligi ijobiy baholanadi. Shu bilan birga, fan dasturlarining o'zbek tilidagi tasdiqlangan variantlarini ishlab chiqish, o'quv reja va malaka talablari o'rtasidagi uzviylikni ta'minlash, o'quv adabiyotlari va raqamli ta'lim infratuzilmasini boyitish, inklyuziv ta'lim resurslarini yaratish hamda inson resurslarini shtat jadvaliga muvofiq to'ldirish zarurati aniqlandi. Barcha baholash yo'nalishlari (boblar) bo'yicha holat “muvofiq” deb baholangani va aniqlangan kamchiliklarning akkreditatsiyaga to'sqinlik qilmasligi inobatga olingan holda, ta'lim dasturi muvofiq deb baholandi.

9. TA'LIM DASTURI BO'YICHA AKKREDITATSIYA KOMISSIYASI QARORI

Akkreditatsiya komissiyasi qarori sanasi:	05/06/2026-yil
Akkreditatsiya komissiyasi bayon soni:	2-son
Yakuniy qaror (<i>akkreditatsiyadan o'tdi/akkreditatsiyadan o'tmadi</i>)	AKKREDITATSIYADAN O'TDI



+998 55 505 30 30



info@nqaee.uz
www.nqaee.uz



@nqaeeuz



@nqaeeuzbot

